

Yodgorlik majmuasiga tashrif

Qalb xotirjamligi, dil pokligi, ruh osoyishtaligi ziyorat va ilm ham ibodat bilan. Donishmandlarning bu o'gitida ulug' haqiqat bor. O'tganlar ruhini shod etish, ilm-u amallarini yod etishning hikmati ham katta. Qalbgga jo bo'lgan qadamjolarni ziyorat qilish mas'uliyat va majburiyatni his etishga imkon tug'diradi. 2018 yil 7 dekabr kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti "Suv xo'jaligida ekologiya xavfsizligi" ta'lim yo'nalishi 106-guruh talabalari guruh rahbari hamrohligida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalar "Oq saroy" qarorgohida tashkil etilgan yodgorlik majmuasi, muzeydagi eksponatlar bilan tanishishdi.



"SXTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov